

Issiqxona ko'chatchiligida organik ko'chat yetishtirishning afzalliklari

Xoliqov Muxridin Baxromjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Mevachilik va sabzavotchilik kafedrasida katta o'qituvchisi.

E-mail: muhridinxoliqov995@gmail.com

Ilhomov Samandar Dilmurodjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti 23.66-guruh talabasi

Husanboyeva Zuhraxon Husanboy qizi

Farg'ona davlat universiteti 23.66-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kunda qishloq xo'jaligining istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida qaralayotgan organik dehqonchilik sohasiga qaratilayotgan etibor, ekologik jihatlari hamda istiqbollari to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan va eng katta ahamiyatli jihati sifatida uning afzalliklari batafsil tahlil qilingan.

Abstract: This article provides information on the attention paid to the field of organic farming, which is currently considered one of the promising areas of agriculture, its ecological aspects and prospects, and, most importantly, its advantages are analyzed in detail.

Kalit so'zlar: Organik ko'chat, biologik o'g'it, bigumus, compost, barqarorlik, xavfsizlik.

Keywords: Organic seedlings, biological fertilizer, bighumus, compost, sustainability, safety.

Kirish. Ko'pchilikka malumki insoniyat hayotining eng qadimgi davrlaridan boshlab dehqonchilik bilan yerga ishlov berib va ekin ekib o'z iste'moli uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni yetishtirib kelgan. Shu bilan birgalikda fan-texnikaning rivojlanishi natijasida dehqonchilik va yerga ishlov berish usullari ham tobora yangilanib borgan. Texnika va texnologiyalar bilan birgalikda dehqonchilikda hosildorlikni oshirish va olinadigan hosilning sifatini yaxshilash uchun turli xildagi kimyoviy moddalardan foydalanish, biotexnologiya yangiliklarini qo'llagan holda laboratoriya sharoitida urug'larning hosildorligini sun'iy ravishda oshirish (fan tilida – gen modifikatsiyasi) hozirgi kunda keng avj oldi. Dehqonchilikdagi ushbu o'zgarishlar hosildorlikni oshirishi va oziq-ovqat tanqisligini oldini olsada, biroq biz iste'mol qilayotgan meva va sabzavotlarning foydadan ko'ra zararliroq bo'lishiga olib kelyoqda desak xato bo'lmaydi. Aynan shunday holatlar ko'paygan sari dunyo aholisi tomonidan ekologik sof – toza mahsulotlarga ehtiyoj ortib bormoqda. G'arb davlatlarida sog'lom ovqatlanishga bo'lgan talab organik bozorning o'sishiga turtki bo'lmoqda. Ko'plab davlatlar organik mahsulotlarga subsidiyalar va sertifikatni jarayonlarini osonlashtirmoqda. Davlatlar bosqichma-bosqich organik amaliyotlarni o'z qishloq xo'jaligining muhim qismiga aylantirmoqda. Organik dehqonchilikda ekinlarni yetishtirish va hosildorlikni oshirish uchun organik o'g'itlar (chirigan go'ng, biogumus, compost, tuproq unumdorligini oshirish uchun sederat ekinlar ekiladi), zararkulanda va kasalliklarga qarshi biologik preparatlar va entomofaglar qo'llaniladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad aholini salomatligini va atrof – muhitni saqlash, tuproqlarning tabiiy unumdorligini oshirishdir. Organik dehqonchilikda faqatgina ekologik toza mahsulotlarning ishlatilishi tufayli insonlar, hayvonlar va atrof muhit zararlanishining yetarlicha oldi olinadi va ekologik muhitning yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ta'minlanadi.

Asosiy qism. Issiqxonada organik ko'chat yetishtirish – bu sifatli, xavfsiz va barqaror mahsulot olishning eng samarali yo'llaridan biridir. Issiqxonada organik

ko'chatlar yetishtirishning juda ko'plab afzalliklari mavjud bo'lib, ning asosiy afzalliklarini birma – bir o'rganib va shuning bilan birga tahlil ham qilib chiqamiz.

Tabiiy muhitni boshqarishdagi afzalligi. Issiqxonalarining hajmi va kattaligi cheklanganligi tufayli undagi harorat, namlik va yorug'likni ortqicha qiyinchiliklarsiz boshqarsa bo'ladi. Ularni boshqarish orqali ko'chatlar bir xil va sog'lom rivojlanadi.

O'g'itlashdagi afzalligi. Organik ko'chat yetishtirilayotganda uning vegetatsiya davrida kerak bo'ladigan biologik ozuqa moddalarni ham bema'lol nazorat ostiga olib, ko'chat uchun optimal tarzda yetkazib bersa bo'ladi. Biologik o'g'it sifatida eng asosiysi chirigan go'ng, kompost va biogumus qo'llaniladi. Issiqxona unchalik darajada katta bo'lmagani uchun bu o'g'itlarni topqish va tuproqqa solish xarajatlarning miqdori ko'p bo'lmaydi. Organik o'g'itlar (biogumus, kompost) ko'chatlarning immunitetini kuchaytiradi, ildiz tizimini mustahkamlaydi va qo'ziqorin kasalliklariga qarshi chidamliligini oshiradi. Biogumus va kompos - tuproqni boyitadi, foydali mikroorganizmlarni ko'paytiradi va ko'chatlarning immunitetini kuchaytiradi.

mikroorganizmlar saqlab qolinadi. Bu mikroflora ko'chatlarni kasalliklardan tabiiy yo'l bilan himoya qiladi.

Organik ko'chat yetishtirishda qo'llaniladigan biologik preparatlar:

1. Neem yog'i Zararkunandalarga (shira, trips, oqkanot) qarshi samarali tabiiy insektitsid.
2. Sarimsoq va piyoz eritmalari Qo'ziqorin kasalliklari va ayrim hasharotlarga qarshi tabiiy vosita.
3. Biofungitsidlar (Trichoderma, Bacillus subtilis) Tuproqdagi qo'ziqorin kasalliklariga qarshi foydali mikroorganizmlar.
4. Foydali hasharotlar (ladybug, entomofaglar) Shira va boshqa zararkunandalarni tabiiy yo'l bilan kamaytiradi.

5. Kukurli oltingugurt O'simliklarda un-shudring kabi qo'ziqorin kasalliklariga qarshi ishlatiladi.
6. Yashil o'g'itlar (sideratlar) Tuproqni sog'lomlashtiradi, kasalliklarning tarqalishini kamaytiradi.
7. Kaliy permanganatning zaif eritmasi Urug' va tuproqni dezinfeksiya qilishda ishlatiladi.

Xavfsizlik tomondan afzalligi - kimyoviy moddalar ishlatilmagani uchun mahsulot inson salomatligi va ekologiya uchun xavfsiz bo'ladi. Organik usullar issiqxonada ko'chat yetishtirishda inson salomatligi, ekologiya va mahsulot sifati nuqtai nazaridan katta afzalliklarga ega. Inson salomatligi uchun xavfsizligini tahlil qilamiz: Organik usulda ko'chat yetishtirilganda pestitsid va mineral o'g'itlar ishlatilmaydi, bu esa zaharlanish, allergiya va boshqa salbiy ta'sirlarni kamaytiradi. Organik ko'chatlardan olingan hosil vitamin va minerallarga boy bo'ladi. Iste'molchilar ekologik toza va sog'lom mahsulot oladi.

Barqarorlik bo'yicha afzalligi – issiqxonada harorat, namlik va yorug'lik nazorat qilinadi. Bu esa mavsumdan tashqari davrlarda ham ko'chat yetishtirish imkonini beradi. Fermerlar bozorga uzluksiz ko'chat va mahsulot yetkazib bera oladi. Bu iste'molchilar uchun barqaror oziq-ovqat manbai yaratadi. Organik issiqxona mahsulotlari bozorda yuqori talabga ega bo'lib, fermerlarga doimiy daromad manbai yaratadi.

Xulosa. Issiqxonada organik ko'chat yetishtirishning afzalligi shundaki, bu usul sifatli, xavfsiz va barqaror mahsulot olishning eng samarali yo'li hisoblanadi. Organik issiqxonada tabiiy himoya vositalari qo'llash orqali sog'lom ko'chatlar, xavfsiz mahsulot va ekologik muvozanat ta'minlanadi. Bu usullar kimyoviy vositalarga muqobil bo'lib, uzoq muddatli barqaror hosildorlikni kafolatlaydi. Organik usulda issiqxonada ko'chat yetishtirish nafaqat sifatli va xavfsiz mahsulot beradi, balki barqarorlikni ta'minlashda ham katta afzalliklarga

ega. Tomchilatib sug'orish va organik o'g'itlar yordamida suv va oziq moddalar aniq me'yorlarda beriladi. Bu esa tabiiy resurslarni tejashga yordam beradi. Demak, issiqxonada organik ko'chat yetishtirish nafaqat hosildorlikni oshiradi, balki ekologik muvozanatni saqlash, sog'lom oziq-ovqat ta'minoti va iqtisodiy foyda keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/qishloq-va-o-rmon-xojaligi/issiqxonalarda-ko-chatyetishtirish-texnologiyasi>
2. "Issiqxonalarda sabzovot ko'chatchiligi" – Salohiddin Yunusov, Zafarali Abdiyev (2020)
3. <https://soff.uz/product/energetika-issiqxona-haroratini-nazorat-qilishtizimi>
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/qishloq-va-o-rmon-xojaligi/issiqxonalarda-ko-chatyetishtirish-texnologiyasi>